



**JIZZAX VILOYATI  
STATISTIKA BOSHQARMASI**

**JIZZAX  
VILOYATIDA  
QURILISH ISHLARI**

**2022- YIL  
YANVAR-MART**





# JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

2022- yilning yanvar-mart oylarida, Jizzax viloyatida jami **616,0** mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʻsish surʻati 2021- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan **104,6 %** ni tashkil etdi.



## Qurilish ishlari hajmining tarkibi, % da


Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʻyicha shakllanadi.




# 2022- yil 1- aprel holatiga ko'ra qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar, *birlikda*



Yillar kesimida soni



Hududlar kesimida



1126

Bino va inshootlar  
qurilishi

409

Fuqarolik obyektlarini  
qurilishi

563

Ixtisoslashtirilgan  
qurilish ishlari

Qurilish sohasi mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining barqaror o'sishiga o'zining munosib hissasini qo'shib kelayotgan sohalardan hisoblanadi. Ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni 2021- yil bilan solishtirganda o'sish sur'ati 102,4 foizga oshgan.

Qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni ushbu sohaning quydagi yo'nalishlari kesimida qaralganda;

binolar va inshootlar qurilish yo'nalishi 53,7 foiz ulushi;

fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 19,5 foiz ulushi;

ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 26,8 foiz ulushni tashkil etdi.



## Hududlar kesimida qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar, *birlikda*

	Holatiga :		o'tgan yilga nisbatan, % da
	01.04.2021- y.	01.04.2022- y.	
Jizzax viloyati	2048	2098	102,4
Jizzax sh.	883	887	100,5
<i>tumanlar:</i>			
Arnasoy	57	54	94,7
Baxmal	70	68	87,1
G'allaorol	137	143	104,4
Sh. Rashidov	352	341	96,9
Do'stlik	64	68	106,3
Zomin	120	142	118,3
Zarbdor	107	114	106,5
Zafarobod	24	29	105,8
Mirzacho'l	52	55	120,8
Paxtakor	77	81	105,2
Forish	62	76	122,6
Yangiobod	43	40	93,0



# 2022- yil 1- aprel holatiga ko'ra Jizzax viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari ulushi, % da




Jizzax sh. (42,3)



Sh.Rashidov (16,3)



G'allaorol (6,8)





## Qurilish ishlari 2022- yil yanvar-mart uchun

	Qurilish ishlari, mln. so'm	Shu jumladan:		
		Yirik qurilish tashkilotlari	Kichik va mikrofirmalar	Norasmiy sektor
Jizzax viloyati	616027,6	20188,3	441577,5	154261,8
Jizzax sh.	251538,6	7032,6	215775,3	28730,7
<i>tumanlar:</i>				
Arnasoy	9102,2		3832,8	5269,4
Baxmal	18612,4		5330,2	13282,2
G'allaorol	43738,7		23918,5	19820,2
Sh. Rashidov	95960,9		79942,4	16018,5
Do'stlik	14188,5		6341,5	7847,0
Zomin	66262,5	11130	36164,9	18967,6
Zarbdor	31522,3	494,9	19747,6	11279,8
Zafarobod	8382,6	107,8	3704,3	4570,5
Mirzacho'l	9643,8	1423	3930,1	4290,7
Paxtakor	39620,5		31743,8	7876,7
Forish	20928,2		7542,5	13385,7
Yangiobod	6526,4		3603,6	2922,8

\* Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda




2022- yilning yanvar-mart oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 20188,3 mln. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2021- yilga nisbatan 112,0 % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2021- yildagi ko'rsatkich darajasidan 1,0 % punktga ko'payib, 3,3 % ni tashkil etdi.

# Qurilish ishlari

## 2022- yil yanvar-mart uchun




**Pudratchi** – kapital qurilish uchun pudrat shartnomasi asosida bino va inshootlarni qurish bo‘yicha qurilish-montaj, qayta ta‘mirlash, kapital ta‘mirlash hamda texnologik va boshqa uskunalarni montaj qilish, sozlash va boshqa pudrat ishlarini bajarish bilan shug‘ullanadi.





## Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari



**MA'LUMOT UCHUN:** yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Zomin tumanida (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 55,1 %) ga to'g'ri keldi.



# Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari



2022- yilning yanvar-mart oylarida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 71,7 % i to'g'ri kelib, 2021- yil ko'rsatkichiga nisbatan 0,2 % punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2021- yilga nisbatan 105,4 % ni tashkil etgan holda 441577,5 mln. so'm miqdorida qayd etildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar, ulushi, % da



71,7

2022- yil yanvar-mart

71,9

2021- yil yanvar-mart




**MA'LUMOT UCHUN:** joriy hisobot davrida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori ulush ko'rsatkichi Jizzax shahri (215105,3 mln. so'm yoki umumiy hajmga nisbatan 48,7 %), Sh.Rashidov tumani (79942,4 mln. so'm yoki 18,1 %), Zomin tumani (36164,9 mln. so'm yoki 8,2 %)ga to'g'ri keldi.



## Qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi **25,0 %** ni tashkil etdi yoki **154261,8 mln. so'm** miqdorida qayd etildi. 2021- yilga nisbatan **101,5 %** ni tashkil etdi.




### Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, ulushi foizda

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **8151,4 mln. so'm** qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **607876,2 mln. so'm** qurilish ishlari bajarildi.


2021- yil yanvar-mart



2022- yil yanvar-mart




# Davlat mulkchilik shakli bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari 2022- yil yanvar-mart oylarida





# Nodavlat mulkchilik shakli bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari 2022- yil yanvar-mart oylarida



**Umumiy hajmdan yangi qurilish,  
rekonstruksiya, kengaytirish,  
texnik qayta quollantirish ishlari ulushi  
2022- yil yanvar-mart oylarida**



Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining **80,8 %** i yoki 497636,0 mln. soʻm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

**3,4 %**

Yirik qurilish tashkilotlari boʻyicha yangi qurilish hisobidan 17161,1 mln. soʻmlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **3,4 %** ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar boʻyicha yangi qurilish hisobidan 338916,5 mln. soʻm yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **68,2 %** ni tashkil etdi.

**68,2%**

**28,4 %**

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi 141558,4 mlrd. soʻm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **28,4 %** ni tashkil etdi.



# Hududlar kesimida qurilish ishlari 2022- yil yanvar-mart oylarida

	Qurilish ishlari, mln. so'm	O'sish sur'ati, % da	Shu jumladan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish va texnik qayta qurollantirish
Jizzax viloyati	616027,6	104,6	497636,0
Jizzax sh.	251538,6	104,6	203325,3
<i>tumanlar:</i>			
Arnasoy	9102,2	102,0	7352,9
Baxmal	18612,4	103,0	15035,4
G'allaorol	43738,7	103,2	35332,8
Sh. Rashidov	95960,9	106,3	77518,6
Do'stlik	14188,5	105,6	11461,7
Zomin	66262,5	109,9	53527,8
Zarbdor	31522,3	101,3	25464,2
Zafarobod	8382,6	92,5	6642,8
Mirzacho'l	9643,8	100,4	7790,4
Paxtakor	39620,5	103,3	32006,0
Forish	20928,2	102,0	16906,1
Yangiobod	6526,4	100,8	5272,1


*\*Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda*



**Ma'lumot uchun:** Yangi qurilish – yangi quvvatlarni yaratish maqsadida, yangi hududlarda amalga oshiriladigan asosiy, yordamchi va xizmat ko'rsatish maqsadlari uchun obyektlar (bino va inshootlar) kompleksini qurish.



# Respublikada iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari



**Ma'lumot uchun:** Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.

ulushi % da



Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 3,3 % ni tashkil etib, 2021- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 0,2 % punktga ko'paydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2021- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 0,2 % punktga kamayib, 71,7 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2021- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 0,0 % punkt, 25,0 % ni tashkil etdi.






# Fuqarolik obyektlarini qurilishi bo'yicha qurilish ishlari


Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 17,3 % ni tashkil etdi va 2021- yilga nisbatan 13,5 % punktga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 82,2 % (13,2 % punktga ko'payish) hamda norasmiy sektorning ulushi 0,5 % ni tashkil etdi (0,3 % punktga ko'paydi).

ulushi % da



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2021- yilga nisbatan 10,1 % punktga kamaydi va 3,2 % ni tashkil etdi. Qolgan 96,8 % i kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2021- yilga nisbatan 10,1 % punktga ko'paydi.





## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hududlar kesimida qurilish ishlari 2022- yil yanvar-mart

	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	shu jumladan:		
		Bino va inshootlarni qurilishi	Fuqarolik obyektlarini qurilishi	Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
<b>Jizzax viloyati</b>	616027,6	502431,6	70742,9	42853,1
<b>Jizzax sh.</b>	251538,6	205 154,7	28 886,0	17 497,9
<b>tumanlar:</b>				
Arnasoy	9102,2	7 423,7	1 045,3	633,2
Baxmal	18612,4	15 180,3	2 137,4	1 294,7
G'allaorol	43738,7	35 673,3	5 022,8	3 042,6
Sh. Rashidov	95960,9	78 265,6	11 019,9	6 675,4
Do'stlik	14188,5	11 572,1	1 629,4	987,0
Zomin	66262,5	54 043,5	7 609,4	4 609,6
Zarbdor	31522,3	25 709,6	3 619,9	2 192,8
Zafarobod	8382,6	6 836,9	962,6	583,1
Mirzacho'l	9643,8	7 865,4	1 107,5	670,9
Paxtakor	39620,5	32 314,5	4 549,9	2 756,1
Forish	20928,2	17 069,1	2 403,3	1 455,8
Yangiobod	6526,4	5 322,9	749,5	454,0

*\*Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda*

*Investitsiyalar va qurilish statistikasi  
bo'limi*

*Aloqa telefoni: (72) 221-53-73*